



**UDK: 94(575.1):908(575.1)**

**ROSSIYA IMPERIYASI DAVRIDA FARG‘ONA VODIYSIGA KO‘CHIRIB  
KELTIRILGAN AHOLINING TURMUSH TARZI**

***Nazirov Mirjalol Baxodirjon o‘g‘li***

*Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi*

[nazirovmirjalol60@gmail.com](mailto:nazirovmirjalol60@gmail.com) +998911070307  
ORCID 0000-0001-6877-5513

**Annotatsiya** Ushbu tadqiqot ishida Rossiya imperiyasi davrida Farg‘ona vodiysiga ko‘chirilgan aholi va ularning turmush tarzi batafsil o‘rganiladi. 19-asrning o‘rtalaridan boshlab, Rossiya imperiyasining siyosiy va iqtisodiy strategiyalari natijasida Farg‘ona vodiysi turli ijtimoiy guruqlar uchun yangi yashash joyiga aylangan. Tadqiqotda ko‘chirilgan aholi, ularning yangi yashash sharoitlari va moslashuvi, shuningdek, madaniyat, an’ana va turmush tarzidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu ish Farg‘ona vodiysi tarixini yanada chuqur o‘rganishga, ko‘chirilgan aholi hayotining murakkabligini yoritishga va ushbu davrdagi ijtimoiy dinamikalarni tushunishga yordam beradi. Natijalar, Rossiya imperiyasining o‘zgaruvchan ijtimoiy kontekstida Farg‘onada yuz bergan jarayonlarning umumiy ko‘rinishini ochib beradi va tarixiy tadqiqotlar uchun qo‘sishimcha manba sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** desyatina, yaylov, tog‘-kon, politsiya, tub aholi, dasht, metropoliya, dehqonchilik, mustamlaka, harbiy boshqaruvi.

**ОБРАЗ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ, ПЕРЕСЕЛЕННОГО В ФЕРГАНСКУЮ  
ДОЛИНУ ВО ВРЕМЯ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ**

**Аннотация** В данной исследовательской работе подробно изучается население, переселившееся в Ферганскую долину во времена Российской империи, и их образ жизни. С середины XIX века в результате политических и экономических стратегий Российской империи Ферганская долина стала новым местом проживания различных социальных групп. В исследовании основное внимание уделяется анализу перемещенного населения, его новых условий жизни и адаптации, а также изменений в культуре, традициях и образе жизни. Данная работа поможет глубже изучить историю Ферганской долины, пролить свет на сложность жизни переселенного населения, понять социальную динамику этого периода. Результаты дают представление о процессах, происходивших в Фергане в меняющемся социальном контексте Российской империи, и служат дополнительным источником для исторических исследований.

**Ключевые слова:** десятина, пастбище, горное дело, полиция, коренное население, степь, метрополия, земледелие, колония, военное управление.

## **THE LIFE STYLE OF THE POPULATION REMOVED TO THE FERGANA VALLEY DURING THE RUSSIAN EMPIRE**

**Abstract** In this research work, the population moved to the Fergana Valley during the Russian Empire and their lifestyle are studied in detail. Since the middle of the 19th century, as a result of the political and economic strategies of the Russian Empire, the Fergana Valley has become a new place of residence for various social groups. The study focuses on the analysis of the displaced population, their new living conditions and adaptation, as well as changes in culture, tradition and lifestyle. This work will help to further study the history of the Fergana Valley, shed light on the complexity of the life of the displaced population, and understand the social dynamics of this period. The results reveal an overview of the processes that took place in Fergana in the changing social context of the Russian Empire and serve as an additional source for historical research.

**Key words:** desyatina, pasture, mining, police, indigenous population, steppe, metropolis, farming, colony, military administration

### **KIRISH**

Ko‘chirilgan aholi turli millat va etnik guruhlar (o‘zbeklar, qozoqlar, tatarlar va boshqalar) dan iborat bo‘lib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, ta’lim tizimi va mehnat faoliyatlari o‘rganilmoqda. Tadqiqot jarayonida, ko‘chirilgan aholi va mahalliy aholi o‘rtasidagi ijtimoiy aloqlar, madaniy integratsiya va iqtisodiy o‘zaro ta’sir ham ko‘rib chiqiladi.

Turkiston oblasti tuzilganiga (1865-yil 2-mart) qadar Orenburg va G‘arbiy Sibir general-gubernatorliklarining chegaralaridan tortib to Toshkent vohasigacha bo‘lgan shaharlarga, harbiy istehkomlar atrofiga Rossiyadan aholi ko‘chib kela boshlagan edi. Kazalinsk, Oqmachit (Perovsk), Turkiston, Verniy, Ayagoz (Sergiopol), Jarkent, To‘qmoq, Qorako‘l, Pishpak, Marki (Merke), Avliyoota, Talas, Chimkent va boshqa shaharlarga va ularni bog‘lovchi asosiy yo‘llar bo‘yida barpo etilgan hamda bo‘lajak posyolkalarga rus, ukrain, belorus aholisi ko‘plab kelib bo‘lgan edi. Ural, G‘arbiy Sibirdan tashkiliy ravishda ko‘chirilgan kazaklar esa Yettisuvning Xitoy bilan bo‘lgan chegaralariga yaqin hududlariga joylashtirildi.

Tabiiyki, rus qo‘sishlari ketidan kelganlar harbiy ma’muriyat, keyinchalik harbiy - xalq ma’muriyati yordami bilan shaharlarda, ayniqsa qishloq joylarda juda yaxshi imkoniyatlarga va katta imtiyozlarga ega bo‘lishdi. Masalan, 1865-1868 yillarda Turkistonga ko‘chib kelgan rus krestyanlarning har bir oilasi 100 desyatina gacha (109 hektar) dehqonchilikka yaroqli yerga va keng yaylovlarga ega bo‘ldi hamda barcha to‘lovlardan ozod etilgan edi [1;1].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Rossiya imperiyasi davrida Farg‘ona vodiysi turli etnik guruhlar va aholi qatlamlarini o‘z ichiga olgan ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning shakllanishiga guvoh bo‘ldi. Ushbu

davrda ko‘chirilgan aholi o‘zining turmush tarzi, madaniy an’analari, iqtisodiy faoliyati haqida ko‘plab adabiy manbalar mavjud. Bu adabiyotlar, ko‘chirilgan aholi va mahalliy jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, madaniy o‘zaro ta’sirlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Rossiya imperiyasi urushlari va kolonizatsiya siyosati haqida yozilgan asarlar, masalan, “Farg‘ona vodiysi: tarixiy tadqiqotlar” va boshqa tarixiy monografiyalar. Ushbu manbalar ko‘chirilgan aholi soni, ularning kelib chiqishi va joylashuvi haqidagi ma’lumotlarni taqdim etadi.

Ushbu maqolada tadqiq qilingan mavzuni metodologik jihatdan Rossiya imperiyasi davrida Farg‘ona vodiysiga ko‘chirilgan aholi tarixini, ularning kelib chiqish joylarini va ko‘chish sabablari va sharoitlarini o‘rganish mumkin. Bu usulda arxiv materiallari, tarixiy hujjatlar, zamonaviy manbalar hamda ilgari e’lon qilingan ilmiy ishlar asosida izlanish olib borish mumkin.

**NATIJA** Albatta, chorizm va mustamlaka ma’muriyati viloyatga xo‘jalik jihatidan baquvvat ko‘chishini xohlagan edi. Biroq XIX asrning yetmishinchi va undan keyingi yillarda tashkiliy tarzda ko‘chirtirilgan krestyanlar orasida, ayniqsa, o‘zboshimchalik bilan ko‘chib kelganlar orasida bundaylari juda ozchilikni tashkil etishgan.

Shuni hisobga olib, imperiya hukmron mahkamalari Kaspiyorti viloyatiga ko‘chib borayotgan pravoslav e’tiqodiga mansub aholiga mumkin qadar ko‘proq ko‘maklashishga harakat qilishdi. Bu borada harbiy xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan, ya’ni Kaspiyorti viloyatida yashashni xohlagan soldat va zabitlar ustuvor e’tiborga sazovor bo‘lganligi tabiiydir.

Shu bilan birga Turkiston o‘lkasini, jumladan, Kaspiyorti viloyatini mustamlakaga aylantirishning birinchi bosqichida, aholini ko‘chirish jarayoni, bir qaraganda, ancha tartibsiz, stixiyali bo‘lganidek ko‘rinsa-da ham Rossiyaning hukmron doiralari, birinchidan, bu yerga Qrim, Kavkazorti, Volgabo‘yi musulmon aholisi ko‘chib kelmasligini; ikkinchidan, chegara hududlarga, rus garnizonlari yaqiniga hamda magistral yo‘llar bo‘yiga joylashtirilayotgan kazaklar va rus dehqonlarining har bir oilasiga o‘rta hisobda 10-15 desyatinadan ekinbop yer berilishini, ular pul o‘lponlari va turli majburiyatlardan ozod etilishini, lekin zarur bo‘lib qolganida o‘z oralaridan muayyan miqdorda qurolli odamlarni berishlarini; uchinchidan, mustamlakachi ma’muriyat bug‘doy ekishga yaroqli yerlarni oldindan ekspropriatsiya qilinishiga yoki ajratib olib, ularni bir qator imtiyozlar bilan ko‘chirib keltirilgan ruslar ixtiyoriga berilishlarini qattiq nazorat qilar edilar.

Rossiya imperiyasining aholini ko‘chirish siyosatining ulug‘ rus mezonlari shunda ham namoyon bo‘lganki, turli yillarda Turkistonga yoki Kaspiyorti viloyatiga majburiy ko‘chirilgan nemislar, xristian ayirmachilar (raskolniklar) soliq-o‘lpon to‘lashdagi ko‘plab yengilliklardan va haydalma yer bilan ta’minlashdagi imtiyozlardan ham mahrum edilar.

XIX asrning 60-yillardan keyin imperiya hukmron doiralarida metropoliyadan ko‘chirilganlar yer bilan ta’minlangan va yana yuz minglab ko‘chirilganlar oladigan yerkarni xususiy mulk qilib berish to‘g‘risidagi masala ancha vaqt qizg‘in muhokama qilingandi. Lekin Yettisuv, Sirdaryo viloyatlarini boshqarish to‘g‘risidagi 1867-yil 11-iyuldaggi Nizom loyihasida

agrар munosabatlar borasidagi masala uncha yoritilmagani, birinchi general-gubernator K.P.Kaufmanga esa “mazkur nizom loyihasida ko‘rsatilgan asoslar qo‘llanib, unda o‘lka tuzumi uchun foydali va zarur deb e’tirof etilgan barcha chora-tadbirlarni ko‘rish” huquqi berilgani sababli [2;4] yer mulki to‘g‘risidagi masala deyarli 15 yil davomida general-governatorning ko‘rsatma xarakteridagi farmoyishlariga muvofiq, lekin ko‘pincha ancha erkin - rus amaldorlari ixtiyoricha hal qilib kelindi. Bu ko‘proq kazaklar va Avliyoota uyezdlaridagi sug‘orma yerlarida joylashtirish hamda yer bilan ta’minalash amaliyatiga xos ediki, bu yerda tub aholi dasht va tog‘lik rayonlarga zo‘rlik bilan surib chiqarilib, ularning hatto yaylov yerlari ham tortib olinardi. Ayni mahalda, birinchi general-governator ko‘chirib keltirilgan ruslarga yerlarni sotib olishga maxsus farmoyish bilan ruxsat berdi. Mustamlaka ma’muriyati shu tariqa bu yerda asrlar davomida mavjud bo‘lib kelgan, yerdan jamoa bo‘lib foydalanish bilan uyg‘unlashgan yerdan xususiy foydalanishni shakllantira boshladi. Bunday ruxsat tub aholiga nisbatan zo‘ravonlik qilish uchun katta imkoniyatlar yaratib bergani tushunarli, albatta. K.P.Kaufman ham, ko‘plab boshqa yuqori martabali amaldorlar, rus armiyasi zabitlari ham tezda yirik zamindorlarga aylanib qolganliklari tasodifiy emasdi [3;78].

Podsho xonadoniga, imperatorning yaqin qarindoshlariga xususiy mulk sifatida qarashli bo‘lgan “podsholik yer-mulki” esa tez ko‘payib borardi. Bunday yer-mulk Turkistonning barcha viloyatlarida, shu jumladan, Kaspiyorti viloyatida ham mavjud ediki, bu yerda buyuk knyaz ixtiyorida bo‘lgan juda katta Murg‘ob podsholik yer-mulki barpo qilingandi.

Yoritilayotgan mavzuga oid arxiv materiallarini, e’lon qilingan asarlarni o‘rganish va tadqiq qilish imperiya hukmon doiralari 1886-yil 12-iyunda “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida Nizom”ni qabul qilguniga qadar yerga mulkchilik shakllari to‘g‘risidagi masala ataylab tugal hal etilmagan, degan xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu borada biror-bir qonunning yo‘qligi mustamlaka ma’muriyatiga yerga mulkchilikning turli shakllarini u yoki bu sharoitga muvofiqlashtirmay, o‘z ixtiyoricha qaror toptirish imkonini berardi. General K.P.Kaufman ko‘proq yerdan jamoa bo‘lib foydalanish tarafdori edi, lekin u Turkiston shuningdek, Kaspiyorti viloyati yerlarini avval davlat mulki deb e’lon qilib, so‘ngra tub aholiga yer maydoniga ko‘ra obrok solig‘i evaziga doimiy foydalanish uchun berish kerak deb hisoblardi.

1883-yilda imператор topshirig‘i bilan Ichki ishlar vaziri kengashining a’zosi, maxfiy maslahatchi F.K.Girs tomonidan Turkistonning ahvoli taftish qilindi. F.K.Girs mintaqadagi ma’muriy boshqaruv, harbiy siyosat bilan bir qatorda agrar masalaga ham jiddiy e’tibor qaratdi. U “o‘troq aholi tasarrufida haqiqatda bo‘lgan yerlarni, belgilangan soliq va o‘lponlardan ozod qilmagan holda, unga to‘liq mulk huquqi bilan biriktirib qo‘yish lozim”, - deb taklif qilgandi [4;7].

Ko‘chmanchi aholi tasarrufidagi yerlarni esa F.K.Girs, 1868-yilda K.P.Kaufman tomonidan ta’riflanganidek, davlat yerlari deb e’lon qilishni taklif etdi [5;7]. Shu bilan bir qator boshqa takliflarni hamda F.K.Girs ishlab chiqqan Turkistonni boshqarish to‘g‘risidagi loyihani ko‘rib chiqish uchun N.Ignatyev raisligidagi komissiya tuzildi.

Graf Ignatyev komissiyasi F.K.Girs takliflarini ko‘rib chiqib K.P.Kaufman va Kolpakovskiyning yuqorida eslatib o‘tilgan mulohazalari foydasiga aniq yon bosib, jiddiy tuzatishlar kiritdi. N.Ignatyevning izohnomasida, uning rahbarligidagi komissiya, “o‘troq mahalliy aholiga ularda haqiqiy foydalanishda bo‘lgan yerkarta egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etish huquqini bergani holda, bu yerlarni davlatniki deb e’tirof etadi” [6;134], deb ko‘rsatilgan. F.K.Girs bilan N.Ignatyev komissiyalarining yondashuvlaridagi farq shundaki, birinchisi ko‘chmanchi yerlarini davlat mulki deb e’lon qilishni taklif etgan bo‘lsa, ikkinchisi tub o‘troq aholi yerlarini davlat yerlari deb e’lon qilish taklifini kiritgan.

**MUHOKAMA** Mahalliy tub xalqlar uchun hayotiy muhim bo‘lgan bu masala xalqlarning o‘z tomonidan emas, ya’ni dehqonchilik va yer tuzish Bosh Boshqarmasi tomonidan ham emas, balki Rossiya Harbiy vazirligi tomonidan tugal hal etilgani diqqatni tortadi. Bu vazirlik tomonidan obrok o‘lponi va tub aholi yerini davlatniki deb e’lon qilishga qarshi e’tiroz bildirdi, lekin ko‘chmanchi aholi yerlarini davlatniki deb hisoblashga rozi bo‘ldi. Ko‘chmanchilarining yerlarini davlatniki deb e’lon qilinishi esa Turkiston va Dasht o‘lkalardagi ko‘p asrlik ko‘chmanchi chorvachilikni saqlab qolishni xavf ostiga qo‘ydi. Shunday bo‘lsa-da imperator tomonidan 1886-yil 12-iyunda imzolangan “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida Nizom”ga tegishli modda kiritildi.

Turkiston tub xalqlari uchun hayotiy muhim bo‘lgan bu masala xalqlarning o‘zi tomonidan emas, ya’ni dehqonchilik va yer tuzish bosh boshqarmasi tomonidan ham emas, balki Rossiya Harbiy vazirligi tomonidan tugal hal etilgani diqqatni tortadi. Bu vazirlik obrok o‘lponi va tub aholi yerini davlatniki deb e’lon qilishga qarshi e’tiroz bildirdi, lekin ko‘chmanchi aholi yerlarini davlatniki deb hisoblashga rozi bo‘ldi. Ko‘chmanchilarining yerlarini davlatniki deb e’lon qilinishi esa Turkiston va Dasht o‘lkalardagi ko‘p asrlik ko‘chmanchi chorvachilikning saqlanib qolinishi xavf ostiga qo‘ydi. Shunday bo‘lsa-da, imperator tomonidan 1886-yil 12-iyunda imzolangan “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida Nizom”ga tegishli modda kiritildi.

Mustamlaka boshqaruvi tizimi uchun ko‘p millatli tub aholining ijtimoiy ahvoli uchun tegishli bo‘lgan siyosiy, adliyaviy va boshqa jihatlar notayin bo‘lgani holda mustamlakachi ma’muriyat harbiy-politsiya rejimi o‘rnatalganidan boshlab tub aholi huquqlarini, deyarli barcha manfaatlarini oshkora inkor etib, poymol qilib keldi. Ko‘chirib keltirilgan ruslarni Turkiston shaharlarida, ayniqsa qishloq joylarida mahalliy aholini siqishtirish, uning yer mulkini talontaroj qilish evaziga imkoniboricha yaxshiroq joylashtirishga intildi. 1886-yil 12-iyunda qabul qilingan “Nizom”da Turkistonning tub aholisiga nisbatan qo‘yilgan talablar aslo bo‘shashtirilmagan. Aksincha, dehqonlar va ko‘chmanchilar tasarrufida qoldirilgan yerlardan solinadigan soliq oshirilgan va jamoadan olinadigan soliq o‘rniga har bir o‘tovdan olinadigan soliq joriy etilgandi. “Nizom”da Turkistonda faqat ruslar maxsus vasiqa bilan mustahkamlab, tub millatlar aholisi uchun esa “odatiy ravishda” [7;9] yer sotib olish tartibi belgilangan edi. Ko‘chmanchilar esa yerni faqat ijaraga berish huquqiga ega edilar.

Birinchi rasmiy “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida Nizom”ning mazmunidan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, garchi o‘lkani mustamlaka qilishning asosiy mezonlari shu jumladan, ko‘chirib keltirilgan ruslarni ko‘plab joylashtirish yo‘li bilan mustamlakaga aylantirish 1881-yil 10-iyundagi “Dehqonlarni bo‘sish davlat yerlariga ko‘chirish to‘g‘risida muvaqqat qoidalar”da qisman ta’riflangan bo‘lsada, Rossiya imperiyasi va Turkistonning, Dasht general-gubernatorliklarning ma’muriyati barcha sohalarda ayni buyuk davlatchilik - shovinistik va mustamlakachilik maqsadlariga rioya qilishgan hamda shunga muvofiq harbiy, ma’muriy va ijtimoiy-iqtisodiy choralarini amalga oshirishgan.

**XULOSA** Xulosa o‘rnida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish darkor:

- faqat pravoslav dinidagi ruslarni emas, balki raskolniklarni - xristian ayirmachilarni ham ichki ishlar vazirligining ruxsati bilan ko‘chirishga yo‘l qo‘yildi;
- Rossiyadan ko‘chirilganlar uchun ko‘zda tutilgan imtiyozlar va yengilliklar Turkiston harbiy okrugidan zahiraga chaqirilgan pravoslav quyi amaldorlarga ham taalluqli qilib qo‘yildi;
- ko‘chirib keltirilganlar dastlabki 5 yil ichida har qanday o‘lpordan to‘liq, keyingi 3 yilda esa yarmiga ozod qilindi;
- ko‘chirib keltirilgan 15 yoshdan katta bo‘lgan erkaklar harbiy majburiyatdan ozod etildi [8;35].

Rus dehqonlarining ushbu qoidalar bo‘yicha Turkiston viloyatlariga, shu jumladan Kaspiyorti viloyatiga ko‘chirilishining ixtiyoriyligini namoyish etishning tashqi ko‘rinishidan samarali usullaridan biri joylashtirish ehtimol tutilgan joylarga turli qishloqlardan vakillarni yuborish edi. Vakillar hatto shimoliy Eronga ham yuborilgan, lekin bunday manzillarga “imperiya maqsadlari uchun yaroqsiz unsurlarni” ko‘chirishga yo‘l qo‘ymaslik qattiq nazorat qilinardi.

## **ADABIYOTLAR**

1. Faafforov Sh.C. Rossия империясининг Туркистонга аҳолини кўчириш сиёсати. (XIX асрнинг иккичи ярми - XX аср боши) // Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент – 2003, 129-Б.
2. ЎзРМДА. И-1-жамғарма, 25-рўйхат, 26-иш, 4-5-вароқлар.
3. Галузо П.Г. Туркестан-Колония. –М.:Госиздат, 1929. -С.78.
4. Объяснительная записка к проекту положения об управлении Туркестанским краем, составленная комиссией под председательством графа Н.Игнатьева, Спб. 1884.
5. ЎзРМА. И-1 жамғарма, 25-руйхат, 26-иш, 7-варақ.
6. Faafforov Sh.C. Rossия империясини Туркистонга аҳолини кўчириш сиёсати (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари) // Тарих фанлари доктори даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент – 2003, 134-бет.
7. Положение об управлении Туркестанским краем, 12 июня 1886 года. Спб. 1886.-С.9.
8. Гинзбург А. Русское население в Туркестане. М., 1991.- С.35.